

Jumabayeva Dildora Madaminovna
Urganch innovatsion universiteti
psixologi
jumaboyevadildora75@gmail.com
[0009-0009-8665-1245](tel:0009-0009-8665-1245)

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb jihatlari, o'quv jarayonida kommunikativ yondashuvdan foydalanish usullari, hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bu boradagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, talabalar orasida muloqot madaniyatini oshirish, jamoaviy ishlash va o'z fikrini aniq ifoda eta olishga o'rgatish orqali ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi yoritilgan. Amaliy tavsiyalar va ta'lim muassasalarida qo'llash mumkin bo'lgan interaktiv metodlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ ko'nikmalar, talabalar, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muloqot madaniyati, o'zaro hamkorlik.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье анализируются современные аспекты формирования и развития коммуникативных навыков у студентов, методы использования коммуникативного подхода в образовательном процессе, роль современных педагогических технологий в этом вопросе. Также освещается, как повышение культуры общения студентов, обучение их работе в команде и четкому изложению своих мыслей может оказать положительное влияние на их профессиональное и личностное развитие. Представлены практические рекомендации и интерактивные методы, которые могут быть использованы в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Коммуникативные навыки, студенты, образовательный процесс, педагогические технологии, интерактивные методы, культура общения, взаимодействие.

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE SKILLS IN STUDENTS

Annotation. This article analyzes the current aspects of the formation and development of communicative skills in students, methods of using a communicative approach in the educational process, and the role of modern pedagogical technologies in this regard. It also highlights how improving the culture of communication among students, teaching them to work in a team and express their thoughts clearly can have a positive impact on their professional and personal development. Practical recommendations and interactive methods that can be used in educational institutions are presented.

Keywords: Communicative skills, students, educational process, pedagogical technologies, interactive methods, culture of communication, interaction.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida kommunikativ ko'nikmalar har bir talabaning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim vosita hisoblanadi. Talabalarning fikrni aniq ifoda eta olish, samarali tinglash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri muloqot o'rnatish kabi qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada ana shu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik jihatlari tahlil qilinadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish – pedagog kadrlar tayyorlash jarayonidagi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Ayni paytda, ta'lim tizimini modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlar doirasida bu masala yanada keskin tus olmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy, psixologik, metodik va tadqiqotchilik faoliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari kompetentlikka asoslangan yondashuvning markaziy kategoriyalari hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalarning yagona ilmiy-ta'riflari mavjud emas – ular ko'p jihatli, murakkab tarkibli va fanlararo mazmunga ega. Ilmiy adabiyotlarda ularning hajmi, mazmuni, mantiqiy tuzilishi va semantik jihatlari farqlanadi, shuningdek, ular ko'pincha kompetentli shaxsning xususiyatlari yoki holati sifatida tasvirlanadi.

Kompetentlik ko'pincha bilim, ko'nikma, malaka, tayyorgarlik darajasi, yo'nalganlik va boshqa kasbiy sifatning uyg'unlashgan ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ba'zan u amaliy tajriba va bilim bilan tenglashtiriladi. Pedagogik adabiyotlarda hozirgi kunda "kompetensiya" va "kompetentlik" atamaları tobora barqarorlik kasb etmoqda. Biroq, hozirgacha ta'limning turli bosqichlari bitiruvchilari uchun mos bo'lgan, "kompetentlik" tushunchasining aniq va umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Turli manbalarda bu tushuncha ko'pincha shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, kasbiy mahorat va mehnatsevarlik kabi sifatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. [1].

Bundan tashqari, kommunikatsiya - bu insonlar o'rtasida fikrlar, his-tuyg'ular, g'oyalar va ma'lumotlarni o'zaro almashish hamda etkazish jarayonidir. Bu jarayon orqali odamlar turli vositalar yordamida bir-birini tushunadi va o'zaro ta'sir o'rnatadi. Kommunikatsiya faqatgina axborot etkazish emas, balki insonlar o'rtasida hamkorlikni ta'minlovchi murakkab va ko'p qirrali munosabatlar tizimidir.

Kommunikatsiya turlari quyidagicha tasniflanadi:

Og'zaki kommunikatsiya - bu so'zlar orqali axborot almashinuvidir. Misol uchun, suhbatlar, uchrashuvlar va konferensiyalar og'zaki muloqotga kiradi.

Yozma kommunikatsiya - matnlar orqali axborot etkaziladi. Bunga elektron pochta, rasmiy xatlar, maqolalar va hisobotlar misol bo'la oladi.

Verbal kommunikatsiya - bu so'zsiz muloqot turi bo'lib, jismoniy harakatlar, tana tili, yuz ifodalari, imo-ishoralar orqali amalga oshiriladi.

Vizual kommunikatsiya - axborot tasvirlar, diagrammalar, grafikalar va boshqa vizual elementlar yordamida uzatiladi.

Bugungi kunda kommunikatsiya ta'lim, mehnat bozori, siyosat va kundalik hayotda muhim rol o'ynaydi. Samarali muloqot insonlarga o'z fikrlarini aniq, ravon va tushunarli tarzda ifoda etish, boshqalarni tinglash va ular bilan to'g'ri aloqada bo'lish imkonini beradi.

Kommunikativ qobiliyatlar - bu shaxsning boshqalar bilan samarali muloqot olib borish, o'z fikr va his-tuyg'ularini aniq ifoda etish, axborotni to'g'ri qabul qilish va uzatish, muloqot davomida mos va lozim bo'lgan munosabatni bildirish ko'nikmalaridir. Ushbu qobiliyatlar har qanday inson uchun ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar uchun bu ko'nikmalar ta'lim olish jarayonida va kelgusidagi kasbiy faoliyatda asosiy o'rin tutadi.

Afsuski, bugungi kundagi ayrim omillar talabalar o'rtasida kommunikativ qobiliyatlarning pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu omillar quyidagicha guruhlanadi:

Ichki psixologik to'siqlar - talabalar ko'pincha omma oldida so'zlashishdan yoki o'z fikrini bildirishdan cho'chishadi. O'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, xatolardan qo'rqish ularda muloqotdan chekinishga olib keladi.

Ta'lim tizimidagi cheklovlar - o'rta ta'lim bosqichida interaktiv va mustaqil fikrlashga etarlicha e'tibor berilmasligi sababli, talabalar oliy ta'limda o'z fikrini ochiq aytishga qiynaladi. Bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Raqamli texnologiyalarga haddan tashqari tayanganlik - internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish ko'nikmalari real hayotdagi yuzma-yuz muloqot o'rnini bosmaydi. Bu esa talabalarda jonli suhbat qurish, emotsional ifoda berish va tana tili orqali fikr etkazish malakalarining susayishiga olib keladi.

Jamoaviy ish va faoliyatning etarli darajada bo'lmashligi - universitetda guruh ishlari va jamoaviy faoliyatlarning kamligi talabalar o'rtasidagi o'zaro muloqotni kamaytiradi. Natijada, talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Tushunmovchiliklar va aniq ifoda etmaslik - ba'zida talabalar o'z fikrlarini izchil, aniq va lo'nda bayon eta olmasliklari sababli muloqotda tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bu esa kommunikatsiya samaradorligini pasaytiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni hisobga olgan holda, talabalar o'rtasida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: o'quv jarayonlarida interaktiv metodlarni ko'paytirish, jamoaviy ishlarni faol yo'lga qo'yish, psixologik qo'llab-quvvatlovni ta'minlash va talabalarga o'z fikrini erkin, aniq va ishonch bilan ifoda etishga yordam beruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish. [3,4].

Talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish usullari:

Interaktiv metodlar: "Bahs-munozara", "Rolga kirish", "Aqliy hujum", "Klaster" va boshqa metodlar orqali talabalarni faol fikrlashga undash.

Guruhda ishlash: Jamoaviy vazifalar orqali talabalarni o'zaro fikr almashish, bir-birini tinglash va hurmat qilishga o'rgatish.

Taqdimotlar va loyiha ishlari: Talabalarni omma oldida nutq so'zlashga, savol-javob qilishga va tanqidiy fikr yuritishga o'rgatish.

Shuningdek, o'qituvchilik kasbi nafaqat bilim va malakani, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Zamonaviy pedagog shaxsiy fazilatlarini chuqur anglay olishi, boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha olishi va turli ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda o'zini tutishni bilishi lozim. Quyida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim bo'lgan psixologik jihatlar bayon etiladi:

- O'zini anglash va shaxsiy refleksiya - Har bir o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, shaxsiy qobiliyatlarini chuqur tahlil qila olishi lozim. O'zini anglash orqali u o'z ustida ishlash yo'llarini aniqlaydi va muloqot jarayonida qanday uslublar samarali ekanini tushunib boradi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

- Emotsional intellektni shakllantirish - O'qituvchining emotsional jihatdan barqaror bo'lishi, boshqalarning his-tuyg'ularini sezishi va ularga empatiya bilan yondashishi pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Emotsional intellekt rivojlangan pedagog o'quvchilarning ruhiy holatini to'g'ri baholay oladi va ularning ehtiyojlariga mos yondasha oladi.

- Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish - O'qituvchining ijtimoiy ko'nikmalari - bu tinglay bilish, fikrini aniq ifodalash, muloqot jarayonida ijobiy munosabatlarni shakllantirish va saqlashga doir qobiliyatlar majmuidir. Bunday ko'nikmalar dars jarayonining samaradorligini oshirishda va sinf muhitini sog'lomlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

- Konfliktlarni hal qilish strategiyalari - Ta'lim jarayonida turli ixtilofli holatlar yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchi sifatida muammoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qila olish, hissiy portlashlardan saqlanish, vaziyatni mantiqan tahlil qilish va tomonlar manfaatini inobatga olgan holda murosaga kelish zarur.

- Interpersonal aloqalarni mustahkamlash - Samarali o'qituvchilik faoliyati uchun o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan iliq, ochiq va ishonchli munosabatlar o'rnatish katta ahamiyatga ega. Interpersonal aloqalar nafaqat muloqotni engillashtiradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Ya'ni, yuqoridagi psixologik jihatlar bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik va madaniy sezgirlik o'qituvchining professionalligini belgilovchi mezonlar

146 hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar ushbu jihatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. [5,6].

Xulosa sifatida aytish mumkinki kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar mustaqil fikrlovchi, ochiq muloqotga tayyor, jamoaviy ishga layoqatli shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratish, har bir fan doirasida kommunikativ yondashuvni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hasanboyeva Z. "Pedagogik texnologiyalar", Toshkent: TDPU, 2020.
2. Karimova N. "Shaxslararo muloqot asoslari", Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Soliyeva D. "Ta'limda interfaol metodlar", Samarqand, 2021.
4. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *TheoryIntoPractice*, 41(2), 64–70.
5. Brown, H. D. (2014). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
6. Hasanboyeva Z. "Pedagogik texnologiyalar", Toshkent: TDPU, 2020.